

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13863485>

## BYUDJET-SOLIQ TIZIMINING MOHIYATI VA ASOSLARI

**Toshtemirova Muxlisa Davronbek qizi**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

[Email-toshtemirovamuxlisaa@gmail.com](mailto:Email-toshtemirovamuxlisaa@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada byudjet soliq tizimining mazmuni hamda O'zbekistonda olib borilayotgan chora tadbirlar to'grisida ma'lumot berigan. Shungdek muammolarga yechim va takliflar ham aytib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Byudjet-soliq siyosati, YAIM, soliq byudjet, daromad, deficitset, profitsit.

**Abstract:** This article provides information on the content of the budget tax system and measures implemented in Uzbekistan. Solutions and suggestions for such problems are also mentioned.

**Key words:** Budget-tax policy, GDP, tax budget, income, deficit, surplus.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о содержании бюджетной налоговой системы и мерах, реализуемых в Узбекистане. Также упоминаются решения и предложения для таких проблем.

**Ключевые слова:** Бюджетно-налоговая политика, ВВП, налоговый бюджет, доходы, дефицит, профицит.

### **Kirish:**

#### **Mavzuning dolzarbliligi**

Byudjet belgilangan muddat (masalan yil yoki kvartal) uchun ishlab chiqilgan, me'yorlashtirilgan hamda qonuniy ravishda tasdiqlangan daromadlar va xarajatlar yig'indisi. U ma'lum bir vazifalar va funksiyalarni moliyaviy ta'minlash uchun mo'ljallangan pul mablag'lari jamg'armalarini toplash va sarflash shaklidir.

Byudjet davlat darajasida, shuningdek viloyat, tuman (mahalliy hokimiyat), xo‘jalik subyektlari, oila yoki shaxs darajasida tuzilishi mumkin. Byudjetni tuzish va belgilangan tartibda tasdiqlash o‘z navbatida uning amal qilishi hamda bajarilishi ustidan nazorat yuritishni talab qiladi. Byudjetda harajatlarning daromadlardan ortib ketishi byudjet defitsiti muammosini keltirib chiqaradi, shu bois doimiy ravishda ularning muvofiqligi ta’minlab boriladi. Byudjet munosabatlari davlatning markazlashtirilgan pul mablag‘lari jamg‘armasida moddiylashadi. Bu jamg‘arma taqsim qilinishi sababli uning shakllanishi va sarflanishi qiymat xarakati orqali ifoda etiladi. Bu jarayon davlat tomonidan yig‘iladigan va sarflanadigan pul resurslari oqimlari ko‘rinishiga ega bo‘ladi.

### **Tadqiqot usullari.**

Byudjet-soliq siyosati deganda noinflyasion YAIM ishlab chiqarish sharoitida iqtisodiyotda to‘liq bandlilikni, to‘lov balansining muvozanatini va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga qaratilgan davlat xarajatlari va soliqlarini o‘zgartirishni o‘z ichiga olgan chora tadbirlar tushuniladi. Iqtisodiyot turg‘unlik yoki pasayish davrida bo‘lgan vaziyatlarda davlat tomonidan rag‘batlantuvchi fiskal siyosat-fiskal ekspansiya olib boriladi. YA’ni, davlat qisqa muddatda iqsodiyotning pasayishi muammosini davlat xarajatlarini oshirish yoki soliqlarni kamaytirish, yohud ikkalasini bir vaqtning o‘zida olib borish evaziga hal etadi. Uzoq muddatda davlat xarajatlarining yuqori bo‘lishi va soliqlarni kamaytirish ishlab chiqarish omillarining o‘sishiga va natijada, iqtisodiy salohiyatning ko‘tarilishiga olib kelishi mumkin. O‘zbekiston respublikasi davlat byudjeti moliyalashtirish davlat moliyasi orqali amalga oshiriladi. Davlat moliyasi o‘znavbatida davlat byudjeti, byudjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalar, davlat majburiyatlariga yo‘naltiriladi. Mamlakat byudjet tizimi Respublika byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, Toshkent shahar byudjeti, 12 ta viloyatlar byudjeti, 199 ta tuman va shaharlar byudjeti va qariyb 47 mingta byudjet tashkilotlarini o‘zida mujassamlashtiradi.

### **Maqolaning ilmiy yangiligi**

Byudjet 2 qismdan iborat bo‘lib bular, daromad va xarajat qismlaridir.

Daromad qismida byudjetni to‘ldiruvchi manba’lar keltirilsa, xarajat qismida uni taqsimlanish qismi keltiriladi. Agar yil oxirida davlat byudjetida daromadlar xarajatlarga teng bo‘lsa unda malakat byudjeti balanslashgan bo‘lib mamlakat barcha mablag‘laridan samarali foydalangan bo‘lib hisoblanadi. Agar daromad xarajatga nisbattan ortisa, unda byudjet taqchilligi yoki difetsiti yuzaga keladi.

Ushbu taqchillikni bartaraf etish maqsadida davlat muomilaga qimmatli qog‘ozlarini chiqarib taqsillikni bartaraf etadi. Agar daromadlar xarajatlardan ortiqcha bo‘lsa, byudjet profitsiti yuzaga keladi va mamlakat ortiqcha pullarini qarzlarini to‘lashga yo‘naltiradi. Davlat byudjetini profitsit yoki difetsit bo‘lishi uning shakllantirishiga bog‘liqdir. Ko‘plab mamlakatlarda shu jumladan O‘zbekiston Respublikasida ham byudjet soliqlar hisobidan shakllantiriladi.

### Tadqiqot metodologiyasi

Keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasi hukumati bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni yaratishga qaratilgan izchiliqtiqsiy islohotlarni amalga oshirmoqda. Islohotlar strategiyasi davlat iqtisodiy siyosatining keng qamrovli dastaklarini o‘z ichiga oladi. Manashunday dastaklardan eng muhimlaridan biridavlatning izchil moliyaviy siyosati hisoblanadi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida davlat moliyaviy siyosatini olib borish va iqtisodni moliyaviy tartibga solish muammolariga alohida e’tibor beriladi. Moliyaviy siyosat davlat iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi bo‘lib, uni falsafiy kategoriyaga taqqoslaydigan bo‘lsak, ustqurmaga talluqlidir. Ma’lumki, har qanday jamiyatda ham davlat biron-bir maqsadga erishish, oldiga quyan vazifa va majburiyatlarini bajarish uchun moliyadan keng foydalanadi. Moliyaviy siyosat qo‘ylgan maqsadlarni hayotga tatbiq etish uchun bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalarni tashkil etishda asosiy rol o‘ynaydi. Moliyaviy siyosatni ishlab chiqish jarayoni va hayotga tatbiq etishda u jamiyatoldida turgan vazifalarni bajarish sharoitlarini taminlab, iqtisodiy manfaatlarga ta’sir ko‘rsatadigan qurol sifatida namoyon bo‘ladi. Moliyaviy siyosatning asosiy yo‘nalishi moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, moliyaviy tizim sohalari o‘rtasida qayta taqsimlash va bosh yo‘nalishga ega bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni

barkarorlashtirish maqsadida davlat ixtiyoridagi moliya resurslarini markazlashtirishdan iborat.

### Xulosa

Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish borasidagi choralar samaradorligi mamlakat soliq siyosatida ham o‘zgarishlar bo‘lishini taqozo etadi. Soliq, siyosatini takomillashtirish mamlakatda olib borilayotgan islohotlarning chuqurlashuvi, mulkchilik shaklidagi o‘zgarishlar, mahsulotlarga baho belgilash, bank tizimi, pul-kredit siyosatidagi islohotlar bilan uzviy bog‘liqlikda olib boriladi. O‘zbekiston

Respublikasi Prezidenti va hukumati tomonidan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan soliq siyosati takomillashtirilishiga joylarda alohida e’tibor qaratilishi kun tartibidagi muhim masalalardan biri bo‘lmoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2016 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ–2455-sonli qarori.
2. Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. – Toshkent: Akademiya, 2002.
3. Malikov T.S. Soliq yukining og‘irligini keskin kamaytirish kerakmi? // Soliq akademiyasi. – Toshkent, 2006.
4. Yahyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti: Darslik. –T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003